

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ATOSHOV SANJAR BAHODIROVICH

**ICHAN QAL'A OB'EKTLARI ARXITEKTURASI VA ULARNING
TIPOLOGIK YECHIMIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash**

**ARXITEKTURA BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy
(PhD) on architecture**

Atoshov Sanjar Bahodirovich

Ichan qal'a ob'ektlari arxitekturasi va ularning tipologik yechimidagi
o'ziga xos jihatlar.....3

Атошов Санжар Баходирович

Архитектура объектов "Ичан Кала" и особенности их
типологического решения.....21

Atoshov Sanjar Bahadirovich

The architecture of "Ichan Qala" objects and specific aspects in their
typological solution.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works45

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ATOSHOV SANJAR BAHODIROVICH

**ICHAN QAL'A OB'EKTLARI ARXITEKTURASI VA ULARNING
TIPOLOGIK YECHIMIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.
Arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash va tiklash**

**ARXITEKTURA BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.3.PhD/A140-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamatmusaev Tohir Shaydulovich
arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Sultanova Dilshoda Nomozovna
arxitektura fanlari doktori, dotsent

Xudayberganov Kamiljan
tarix fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "10" yanvar, soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko'chasi 9-uy, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti majlislar zali. tel.:+998 (55) 508-02-56. e-mail: devon@taqu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (121 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy. tel.: +99871 234-60-16.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "20" dekabr kuni tarqatildi.

(2023 yil "21" dekabrdagi №51 raqamli reestr bayonnomasi).

B.A. Asqarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d. professor

SH. S. Reyimbaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, arx.f.n., dotsent

A. A. Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arx.f.n., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda qadimda shakllanib bugungi kungacha yetib kelgan tarixiy hududlarni saqlash va arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash, ulardan maqsadli foydalangan holda turizm samaradorligini oshirish yuzasidan salmoqli ishlar bajarilmoqda. Tarixiy shaharlarni qayta qurish va ta'mirlash borasida olib borilayotgan ishlarda hududlarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarini aniqlash, eng rivojlangan bosqichini belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada tarixiy strukturani imkon qadar saqlab qolish, ob'ektlarning muhofaza zonalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Dunyoda o'zining qadimiy strukturasi saqlab kelayotgan tarixiy shaharlarni o'z holicha saqlab qolish, arxitektura ob'ektlarining tipologik yechimlarini, irrigatsiya tizimlarini o'rganish, turizm infratuzilmasini samarali shakllantirish borasida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tarixiy mahallalar va yodgorliklar arxitekturasini saqlab qolgan holda ta'mirlash va qayta tiklash, ob'ektlarning dastlabki holati bo'yicha grafik rekonstruktsiya ishlarini bajarish, ilmiy asosga ega samarador turistik marshrutlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda madaniy meros ob'ektlarini ta'mirlash va saqlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirilib, bugungi kunda mamlakatimiz hududi joylashgan aksariyat yodgorliklar ta'mirlanib, atrofi obodonlashtirildi. Bu jarayon hududlarning turistik imkoniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. "Biz chet ellik turistlarni qadimiy tariximiz va qadriyatlarimiz bilan jalb qilishimiz mumkin. Lekin Xorazmning, Xivaning tarixi to'liq o'rganilmagan, uni tanishtirish bo'yicha tizim ham yo'q. SHuning uchun Xorazm tarixini eng qadimgi davrdan boshlab yilma-yil o'rganib, odamlarga sodda tilda tushuntirishni yo'lga qo'yish kerak. Muhim davrlar va voqealar, har bir xon hayoti bo'yicha shou-ruklar tashkil etib, sayyohlarni qiziqtirish zarur. Xivaga kelgan odam katta taassurot, bilim olib ketsin, bu yerda ko'proq qolib vaqtini mazmunli o'tkazsin".¹ Bu borada dunyo miqyosida tan olingan tarixiy shaharlar va ularda joylashgan arxitektura ob'ektlarini ilmiy tadqiq etish asosida rekonstruktsiya qilish takliflarini ishlab chiqish, turizmni takomillashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 yanvardagi PF-5181-son "Moddiy, madaniy va arxeologik meros ob'ektlaridan foydalanishni va muhofazasini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni, 2017 yil 4 maydagi PQ-2953-son "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida", 2023 yil 12 iyuldagi PQ-223-son "Xiva - 2024 yilda islom dunyosining turizm poytaxti" xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida", 2014 yil 21 iyuldagi PQ-200-son "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori va shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 29 ноябрда Хивага қилган ташрифидаги нутқи.

rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g’oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo’llari” ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Madaniy meros ob’ektlariga, O’zbekiston tarixiy shaharlarining tarixi va arxitekturasi o’rganishga bag’ishlangan ishlarni ko’plab, jumladan Ahmedov M.Q.², Asqarov SH.D., Abdurasulov R.R.³, Bartold V.V.⁴, Vyatkin V.L.⁵, Voronina V.L.⁶, Dmitriev V.M.⁷, Durdieva G.S.⁸, Ziyaev A.A., Zohidov P.SH.⁹, Lavrov V.A.¹⁰, Masson V.M.¹¹, Madaminov M.R., Mamatmusaev T.SH., Nilsen V.A.¹², Notkin I.I., Nozilov D.A., Nurmuxamedova SH.Z.,¹³ Pugachenkova G.A.,¹⁴ Polupanov V.M.¹⁵, Po’latov X.SH., Rempel L.I.,¹⁶ Raximov K.J., Reyimbaev SH.S., Suxareva O.A.¹⁷, Salimov O.M., Sulstonova D.N., Uralov A.S.¹⁸, Hakimov A. A.,¹⁹ CHEkaeva R.U.²⁰, Yusupova M.A.²¹ kabi olimlar tomonidan o’rganilgan.

O’rta asrlar Xorazm vohasi turar-joylarini arxeologik nuqtai-nazardan tadqiq etish o’tgan asrning birinchi yarmida Yakubovskiy A.Yu., tomonidan Ko’hna Urganch va Mizdahkon²², G’ulomov Ya.G’. rahbarligidagi Guldursun va Norinjon²³, Tolstov S.P. boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi²⁴ tomonidan bir qator shahar xarobalarida turar joy qoldiqlari ochilgan. SHuningdek, ushbu davrda A.I.Terenojkinning²⁵ qazuv tadqiqotlari ham muhim bo’lib, u XI-XII

² Ахмедов М. Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. – Т.: «Ўзбекистон», 1995. – 142 б.;

³ Абдурашулов Р.Р. «Архитектура народного жилища Узбекистана», Архитектурное наследие Узбекистана, Т., 1960. -36 с.

⁴ Бартольд В.В. История культурной жизни Туркистана. // Собр.соч.: в 9 т. Т. III (1). – Москва., 1963.

⁵ Вяткин В.Л. Памятники древностей Самарканда. //Объяснительный текст к «Альбому фотографических снимков Самаркандских памятников древностей». – Самарканд, 1927. – 32 с.;

⁶ Воронина В.Л. Народные традиции архитектуры Узбекистана. М.: Гос.изд.арх.и строй. 1951. – 166 с.

⁷ Дмитриев В.М. Вопросы использования архитектуры узбекского народного жилища в современной практике. – Т.: «Фан» Узбекской ССР 1980 г.- 63 с.;

⁸ Дурдиева Г.С. Хива меъморий ёдгорликларни сақлаш ва таъмирлаш методологиясини такомиллаштириш. Маъруза шаклидаги арх.фан доктори (DSc) диссертацияси. Т., 2017.

⁹ Зоҳидов П.Ш. Меъмор санъати. – Ташкент: “Адабиёт ва санъат”, 1978.– 102 с.;

¹⁰ Лавров В. А. Градостроительная культура Средней Азии – М.: Гос. изд. Арх. и град. 1950. – 179 с.;

¹¹ Массон В.М., Мерперт Н.Я. Археология СССР. Энеолит СССР. – Москва. «Наука», 1982. – 359 с.;

¹² Нильсен В.А., Манакова В. И. «Архитектурный декор памятников Узбекистана». Л., 1974. - 122 с.

¹³ Нурмухамедова Ш. З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Автореферат дисс. доктора наук (DSc) по архитектуре. Т. 2019. – 59 с.

¹⁴ Пугаченкова Г.А., Рempel Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века. – Москва.: Изд-во «Искусство», 1965. – 686 с.;

¹⁵ Полупанов С. Н. Жилой дом в Старом Самарканде, «Архитектура СССР», 1937, №1.

¹⁶ Рempel Л.И. Далекое и близкое. Бухарские записи. Ташкент: Изд-во им. Г Гуляма, 1981. – 301 с.;

¹⁷ Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара: Сб. науч. тр. Ташкент, 1979. – 182 с.

¹⁸ Уралов А. С., Рахимов Л. А. Темурийлар архитектураси тарихи. СамДУ нашри, Самарқанд, 2020 – 246 б.

¹⁹ Хакимов А. Искусство Узбекистана: История и современность/ Институт искусствознания Академии наук Узбекистана. Тошкент-2010, 45-46 б

²⁰ Чекаева Р.У. Архитектура ХВИ –XX веков Бухарского оазиса – Автореферат канд.дисс. Ленинград,1978 г.;

²¹ Юсупова М. А. Бухарская школа зодчества XV-XVIII в.в.: Дисс. док.архитектуры. – Т., 2000 г. – 327 с.;

²² Якубовский А.Ю. Городище Миздахкан. –Записки коллегии востоковедов». т.В. - Л., 1930, с.551-591; яна унинг: Развалины Ургенча. -ИГАИМК, Вип.2, т.ВИ, Л., 1930.

²³ Гулямов Я.Г. Утмиш излари. Гулистон. 1937. № 4; Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғориш тарихи. –Тошкент, 1959.

²⁴ Толстов С.П. Древний Хорезм. М.,1948. С-41-43.

²⁵ Тереножкин А.И. Жилые постройки XI-XIII вв. в Каракалпакской АССР // Известия УзФАН, 1949. -№ 7. – С.

asrlarga oid turar joylarda qazish ishlarini olib borib, o'rta asrlardagi qishloq va shahar turar joylarini alohida o'rganish arxeologiya ilmining kelgusidagi asosiy vazifalaridan biri, degan xulosaga keladi²⁶. SHu nuqtai nazardan keyinchalik Nerazik Ye.Ye. tomonidan Xorazmning XIV asrlarga oid qishloq turar joylari arxeologik va etnografik ma'lumotlar asosida atroflicha o'rganilgan²⁷.

Yuqoridagi tadqiqotlarda Ichan qal'a hududidagi arxitektura ob'ektlarini tipologik jihatdan kompleks o'rganish masalalariga e'tibor berilmagan. Tadqiqod doirasida ko'proq ob'ektlarning joylashishi, ularning tipologik yechimlaridagi o'ziga xosliklarni tadqiq qilish maqsad qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq F.1-86 raqamli "O'zbekiston arxitekturasining mustaqillik mafkurasi asosida shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish va samarali rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish" mavzusidagi (2011-2016 yy.) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Ichan qal'a ob'ektlari arxitekturasi va ularning tipologik yechimidagi o'ziga xos jihatlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'rta Osiyo tarixiy shaharlardagi rivojlanish jarayonlarini, ularning strukturaviy tuzilishini ochib berish;

Xiva shahrining qadimdan hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish;

Ichan qal'a arxitektura yodgorliklari tipologiyasini o'rganish, yondosh tarixiy-madaniy hududlardagi yodgorliklar bilan taqqoslash orqali ularning o'ziga xos jihatlarni aniqlash;

qal'a hududida joylashgan madrasa, maqbara, masjidlar me'morligini tahlil qilish, ularning tipologik yechimlarini ochib berish;

turar uylar tipologiyasini o'rganish;

bezaklarni ta'mirlash loyihalarini tahlil qilish;

Xiva shahri mahallalari arxitekturasini tadqiq qilish;

turar uylarni yangi funktsiyaga moslashtirish loyiha takliflarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Xiva "Ichan qal'a" tarixiy me'moriy shahari va unda joylashgan ob'ektlar olingan.

Tadqiqotning predmetini Ichan qal'aning shaharsozlik va me'morlik tamoyillari hamda yodgorliklarning tipologik yechimlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada arxeologik, qiyosiy-tipologik tahlil, arxiv materiallari, taqqoslash usullari, kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xiva qadimiy shaharsozligining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari ochib berilib, uning qadimdan bir yadro atrofida shakllanib kelayotganligi, XX asrning 2-yarmida Ichan qal'a hududida 23 ta, Dishan qal'a hududida 42 ta masjid-qavmlar hududlari manbaalar asosida aniq belgilab berilganligi hamda ko'chalarning to'rt turi

²⁶ Тереножкин А.И. Археологические разведки в Хорезме. Советская Археология. №6. М., 1940. С.168

²⁷ Неразик Е.Е. Сельское жилище в Хорезма (И-ХИВВ).- М.,1976.С.188.

(to'g'ri chiziqli, oxiri berk, simmetrik kengaytirilgan, bukilgan) mavjud bo'lganligi aniqlangan;

Ichan qal'a hududida joylashgan arxitektura ob'ektlari (madrasalar, maqbaralar, masjidlar) tipologiyasining o'ziga xos jihatlari aniqlanib, jumladan madrasalarning ayrimlari ikki hovlili bo'lganligi (Muhammad Rahimxon, Arabxon, Yusuf Yasovulboshi, Olloqulixon madrasalari), maxsus ta'lim uchun ham mo'ljallangan (Qozi Kalon madrasasi - huquq ta'limi, Xo'jash Maram madrasasi - bojxona ta'limi)ligi asoslangan;

Ichan qal'a hududida joylashgan qadimiy turar uylarning hajmiy-kompozitsion yechimida ayvonlar muhim o'ringa ega bo'lganligi, ular ko'proq shimolga qaratilganligi hamda ayvonlarning ikki qavat balandligida rejalashtirilganligi va asosan bir ustunli ekanligi asoslangan;

Ichan qal'a hududining turizm infrastrukturasini boyitishga xizmat qiluvchi "Pahlavon Mahmud" ko'chasi 41, "Bo'yoqchilar" ko'chasi 23-, 14- va 75-turar-uylarning joylashuv o'rni, rejaviy yechimi, arxitekturasi, konstruktiv holatiga asosan ularni Xiva an'anaviy turar uylariga xos tarzda ta'mirlash va yangi funksiyasiga moslashtirish yuzasidan taklif loyihalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ichan qal'aning qadimdan to XX asrgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi vujudga kelish va rivojlanish jarayonlarini o'zida aks ettirgan grafik loyiha takliflari ishlab chiqilgan;

Ichan qal'a hududidagi arxitektura ob'ektlari va ulardagi bezaklarni ta'mirlash va qayta tiklash yuzasidan amalga oshirilgan loyihalar mazmuni ochib berilgan;

Ichan qal'ada joylashgan turar-joylarni saqlash, qayta tiklash va modernizatsiya qilish borasida samarador tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy natijalar muayyan tadqiqot usullari asosida aniqlanganligi hamda ko'p sonli ilmiy maqolalarda o'z aksini topganligi, tadqiqot natijalarining respublika vakolatli tashkilotlarida amaliyotga joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston me'morchiligi tarixi va nazariyasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan birga tarixiy turar-joylarni saqlash, qayta tiklash va modernizatsiya qilish bo'yicha loyiha ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlari faoliyatida, tarixiy shaharlarni qayta tiklash va saqlashda, turizm infrastrukturasini rivojlantirishda, zamonaviy me'morchilik va shaharsozlikni rivojlantirish bo'yicha amaliyotda foydalanish mumkinligi hamda oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik sohasida ta'mirlash va qayta tiklash bo'yicha fanlarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Ichan qal'a ob'ektlari arxitekturasi va ularning tipologik yechimidagi o'ziga xos jihatlari" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Xiva qadimiy shaharsozligining paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari ochib berilib, uning qadimdan bir yadro atrofida shakllanib kelayotganligi, yirik bo'linmalar elot, kichik bo'linmalar masjid-qavm deb nomlanganligi, XX asrning 2-

yarmida Ichan qal'a hududida 23 ta, Dishan qal'a hududida 42 ta masjid-qavmlar bo'lganligi hamda ko'chalarning to'rt turi (to'g'ri chiziqli, oxiri berk, simmetrik kengaytirilgan, bukilgan) mavjud bo'lganligi aniqlanganligiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 3 avgustdagi 02-05/2644-son ma'lumotnomasi). Natijada Xiva shaharsozligining rivojlanish bosqichlarini kompleks tarzda baholash imkoniyati yaratilgan;

Ichan qal'a hududida joylashgan arxitektura ob'ektlari (madrasalar, maqbaralar, masjidlar) tipologiyasining o'ziga xos jihatlari aniqlanib, jumladan madrasalarning ayrimlari ikki hovlili bo'lganligi (Muhammad Rahimxon, Arabxon, Yusuf Yasovulboshi, Olloqulixon madrasalari), maxsus ta'lim uchun ham mo'ljallangan (Qozi Kalon madrasasi - huquq ta'limi, Xo'jash Maram madrasasi - bojxona ta'limi)ligi asoslanganligiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 3 avgustdagi 02-05/2644-son ma'lumotnomasi). Natijada Ichan qal'a hududidagi tarixiy yodgorliklarning tipologik yechimlarini tasavvur qilish imkoniyati yaratilgan;

Ichan qal'a hududida joylashgan qadimiy turar uylarning hajmiy-kompozitsion yechimida ayvonlar muhim o'ringa ega bo'lganligi, ular ko'proq shimolga qaratilganligi hamda ayvonlarning ikki qavat balandligida rejalashtirilganligi va asosan bir ustunli ekanligi asoslanganligiga oid takliflar Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi tomonidan "Assalom, Xorazm" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2023 yil 10 iyuldagi 474-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv mazmunini Ichan qal'a hududi arxitekturasi aniq ilmiy dalillar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Ichan qal'a hududining turizm infrastrukturasi boyitishga xizmat qiluvchi "Pahlavon Mahmud" ko'chasi 41, "Bo'yoqchilar" ko'chasi 23-, 31- va 75-turar-uylarning joylashuv o'rni, rejaviy yechimi, arxitekturasi, konstruktiv holatiga asosan ularni Xiva an'anaviy turar uylariga xos tarzda ta'mirlash va yangi funksiyasiga moslashtirish yuzasidan grafik taklif loyihalari ishlab chiqilganligiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023 yil 3 avgustdagi 02-05/2644-son ma'lumotnomasi). Natijada Ichan qal'a hududining turistik imkoniyatini oshirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy maqola va tezislarni nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, ulardan 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan. Respublika va xalqaro ilmiy konferentsiyalar materiallarida jami 3 ta tezis, ulardan 2 tasi xalqaro anjumanlar to'plamlarida chop ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, ilovalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, atamalarning izohli lug'ati va ilovadan iborat bo'lib, asosiy matn 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilinib, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xiva shaharsozligining paydo bo’lish va rivojlanish bosqichlari”** deb nomlangan birinchi bobida O’rta Osiyo, xususan Xiva shahrining vujudga kelish va taraqqiyot bosqichlari, hududdagi arxitektura ob’ektlarining qurilish davri va jarayonlari xususida so’z boradi.

Birinchi bobning *“Qadimgi davr O’rta Osiyo shaharsozligi”* deb nomlangan 1-paragrafida O’rta Osiyo, xususan Movarounnahr shaharlarining vujudga kelishi va rivojlanishi xususida so’z boradi.

Movarounnahr hududida Bronza davridayoq Sopolli madaniyatining shakllanishi, ya’ni Sopollitepa protoshaharining vujudga kelishi shaharsozlikning ilk bosqichlarini belgilab bergan. Qadimgi davrdan to hozirgacha bo’lgan davr oralig’ida shaharsozlik madaniyati o’rta Osiyoda besh xil bosqichda rivojlangan. Jumladan, qadimgi davrlarda var tipidagi chodir shaharlar, keyinchalik dual tipidagi shaharlar antik davrlarda shakllangan. O’rta asrlarga kelib, O’rta Osiyo shaharlari uch qismli shaharlarga (ark, shahriston va rabod) bo’lingan. CHor Rossiyasi davriga kelib esa “eski” va “yangi” qismlardan iborat ikki tuzilmali shaharlar paydo bo’ldi. Ikki tuzilmali shaharlar shakllanishiga qadar tarixiy shaharlarning har bir qismi qo’rg’ondevorlar bilan o’rab olingan va shaharlarga darvozalar orqali kirilgan. Ikki tuzilmali shaharlarda esa faqat rus qal’asi qo’rg’ondevor bilan o’rab olingan.

Qadimgi va antik davrlarda shaharlar hududiy jihatdan kichik bo’lib, ular ko’proq kvadrat yoki to’g’ri to’rtburchak shaklida bo’lgan. O’rta asrlarga kelib esa shaharlar kengayib, ularning strukturasi radial-halqasimon shaklga o’tgan. Tarixiy shaharlarning aksariyatida markaziy maydon – Registon maydonlari shakllangan. Qadimgi Xorazm vohasi shaharlari ham qadimdan shakllanib kelgan bo’lib, o’ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega.

O’rta Osiyo hududida mil.av. IV – milodiy IV asrlarga oid yodgorliklarda ko’plab arxeologik tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan G’ulomov Ya.G’. nomidagi Arxeologiya institutining arxeologiya guruhi O’zbekistonning barcha viloyatlarida, Tolstov S.P. rahbarligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi Xorazm vohasida, Masson V.M. rahbarligida Baqtriya ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyatida faoliyat olib borishgan.

S.P.Tolstov o’zining *“Qadimgi Xorazm”* kitobida antik Xorazm tarixini to’rt davrga bo’ladi:

1. Uy-joy devorlari bo’lgan shahriston madaniyati (mil. avv. VI-IV asrlar);
2. Qanqa (Qang) madaniyati (mil. avv. IV asr – mil. I asr);
3. Kushonlar madaniyati (mil. II asr);
4. Kushon-Afrig’ o’tish madaniyati (mil. III-V asrlar).

Bu davrlarga oid Amudaryoning o’ng sohilida 250 dan ziyod, so’l sohilida 60 ta qadimiy shahar va qishloqlar o’rni topilgan. Mil. avv. VI-IV-asrlarga oid Qal’aliqir shahri xarobalari katta qiziqish uyg’otadi. SHahar saroyi 10 ming kvadrat metr

maydonni egallagan va ajoyib me'moriy ansambldan iborat bo'lgan. Saroyning ichki qismi chiroyli ustunlar va yoritgichlar bilan bezatilgan²⁸.

Birinchi bobning 2-paragrafi "*O'rta asrlar davri shaharsozligi*" deb nomlangan. O'rta asrlar, ma'lumki, uch qismga, ya'ni ilk o'rta asrlar, o'rta asrlar va so'nggi o'rta asrlarga bo'lib o'rganiladi. Ushbu bosqichlarda ba'zi tarixiy shaharlar tuzilishi keskin o'zgargan bo'lsa, ba'zilarinikida asosiy tarixiy yadro saqlanib qolganligini ko'rishimiz mumkin. Qadimgi Xorazm hududida ushbu davrlarda shakllangan shaharlarda ham bu jarayonni kuzatish mumkin.

Xivaning o'rta asr shaharlarini izchil o'rganishning boshlanishi XX asrning 20-30 yillariga to'g'ri keladi. Tadqiqotlar natijalari A.Yu.Yakubovskiyning asarlarida o'z aksini topgan²⁹. Ilk o'rta asrlarda Kushonlar imperiyasi tanazzulga uchraganidan keyin Xorazmda ko'shk-qo'rg'onlar qurilishi rivojlangan. Ko'shk-qo'rg'onlar boy zodagonlar tomonidan qurilgan va ularda o'z oilasi bilan istiqomat qilishgan. Ushbu qo'rg'onlar bir necha qo'rg'ondevorlar bilan o'rab olingan. Buni biz Yakka parson va Qo'shparson kabi ko'shk-qo'rg'onlar misolida ko'rishimiz mumkin.

O'rta asrlarda shaharlar 3 qisimli shaklda rivojlangan, ya'ni Ark, shahriston va rabod qismlarga ajratilgan. Markaziy boshqaruv hududi Ark, O'rda, Qal'a nomlari bilan yuritilib, ular alohida qo'rg'ondevorlar bilan o'rab olingan. Bu qismda boshqaruv binolari, sarbozlar uchun qism, zindon, zarbxona, masjid, haramxonalar va boshqalar joylashgan. Ushbu boshqaruv qismi shaharlardagi birinchi zaruriy qism hisoblangan. Ikkinchi navbatdagi zaruriy qism bu shahriston hisoblanib, u ba'zi adabiyotlarda hisor, madina kabi atamalar bilan ham keladi. Bu qismda aholi istiqomat qilgan va turli xil hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan. Rabodlar shaharning uchinchi navbatdagi zaruriy qismi hisoblangan. Ushbu qism shahriston qo'rg'ondevoridan tashqari qism hisoblanib, bu qismda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanilgan hamda shahar aholisi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlangan.

SHaharlarning shakllanishida hudud omili ham muhim ahamiyatga egadir. Bu omil shaharlarning katta yoki kichik bo'lishiga, qurilmalarning tig'iz yoki erkin bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Nisbatan qulay iqlimda joylashgan shaharlar hududiy jihatdan kattaroq, noqulay iqlim sharoitida shakllangan shaharlar kichikroq bo'lgan.³⁰

SH.S.Reyimbaev Xorazm shaharlarining O'zbekistondagi boshqa shaharlaridan farqini quyidagi jihatlarda ekanligini ko'rsatgan:³¹

Iqlim omili: tevarakdagi sahrolar yashash uchun yaroqli yerdan va suvdan tejamkorlik bilan foydalanishni taqozo etgan. Bu esa shaharlar boshqa hududga nisbatan kichik, ichidagi qurilmalari zich bo'lishiga olib kelgan;

Gidrogeologik omil: shaharlar hayotida bu omil ham katta rol o'ynagan. Jumladan, Kat shahrini Amudaryo bir necha bor yuvib ketganligi qayd etilgan;

²⁸ Нурмухаммедова Ш.З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Док.дис.автореф.2019.36-6

²⁹ Якубовский А.Ю. Развалины Ургенча // ИГАИМК, – Л., 1930. Т. VI. – Вып. 2. – С. 5-68.

³⁰ Маматмусаев Т.Ш. Ўзбекистон тарихий шаҳарларининг шаклланиши ва ривожланиши. Док дис. Тошкент. 2019 й. 172-б.

³¹ Рейимбаев Ш.С. Хоразм шаҳарларининг XIX аср охири – XX аср бошларидаги архитектуравий-тархий тизими. Номзодлик диссертацияси автореферати. –Т.: 2005. – 7 б.

Muhofaza omili: shaharlarda bir qator qo'rg'ondevor bilan cheklanmasdan, 2-3 qator qo'rg'ondevor qilingan (Dishan qal'a va Ichan qal'a) hamda shaharlarning asosiy kiraverish darvozasi oldiga sun'iy ko'l qilingan yoki shahar butunlay suv havzasi bilan o'rab olingan.

Birinchi bobning "Xiva shahrining rivojlanish bosqichlari" deb nomlangan 3-paragrafida shaharning rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqilgan.

Xiva shahri O'rta Osiyoning boshqa shaharlari kabi o'ziga xos davriy rivojlanish bosqichlariga ega. Xiva shahrining, ma'lumki, mustaqillik yillarida 2500 yillik yubileyi YuNESKO rahnamoligida keng nishonlandi va tarixiy shahar Ochiq osmon ostidagi muzey sifatida YuNESKOning ro'yxatiga olindi. Xivaning shakllanishi eng qadimgi paydo bo'lgan qism atrofida bugungi kunda ham rivojlanib kelmoqda.

Mil. avv. V asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Ahamoniylar davlati tasarrufida, so'ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, shahar mil. avv. V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimiy qismida joylashgan Xivaq (Xeyvaq) qudug'i bilan bog'liq. Ilk o'rta asrlarda Xiva orqali SHarqni G'arb bilan bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li o'tgan. Xiva IV asr boshlaridan Xorazm bilan birga Sosoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u qal'a devori bilan o'rab olingan. Mil. avv. V asr oxirida Xorazm Eronning siyosiy tazyiqidan xalos bo'lgach, Xivada shahar tuzilmasining asosiy elementlari shakllana boshlaydi.(1-ilova)

Tadqiqotlarga ko'ra, mil. IV-V asrlarda shaharni qum bosgan. VI – VIII asrlarda Xiva qayta tiklana boshlaydi. Xiva xududida zamindorlarning dastlabki ko'shk-qo'rg'onlari paydo bo'la boshlaydi. Ichan qal'ada shunday ko'shklardan 2 tasi topilgan.

XII – XIII asr boshlarida Xiva shahari Xorazmshoxlar davrida ravnaq topib, hududi kengaydi. 1220-1221 yillarda Xorazm CHingizxon qo'shinlari tomonidan vayron etildi. Keyinroq hunarmandchilik, kulolchilik, koshinkorlik singari boshqa mehnat sohalari orqali shahar qayta tiklana boshladi va rivojlandi.

Keyingi davrda ayniqsa, XVI-XIX asrlarda shahar jadal taraqqiy eta bordi. Quyi Volga, O'rta va Yaqin SHarq shaharlari bilan savdo aloqalari o'rnatildi.

X-XVI asrning 2-yarmidan Xiva har tomonlama rivojlandi. Me'moriy qiyofasi ham o'zgara bordi. SHahardan o'zaro ko'ndalang kesishgan 2 ta katta ko'cha va 4 darvoza (Otadarvoza, Polvondarvoza, Bog'chadarvoza, Toshdarvoza) orqali Dishan qal'a (rabod) ga chiqiladi.

Xonliklar davrida Xiva shahri hududiy jihatdan 2 qismdan – Ichan qal'a (ichki shahar) va Dishan qal'a (tashqi shahar)dan iborat bo'lib, uning bunday tuzilishi shahar ichidagi shahar manzarasini bergan.

Umuman olganda, Xiva 1221 yildan mo'g'ullar imperiyasi, 1388 yildan temuriylar davlati tarkibida, XVI asr boshlaridan 1920 yil 2 fevralgacha Xiva xonligi poytaxti bo'lgan. Xonlik 1873 yil rus qo'shinlari tomonidan zabt qilinib, Gandimiyon shartnomasiga ko'ra³², Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantirilgan edi.

Dissertatsiyaning "Ichan qal'a arxitektura ob'ektlari tipologiyasi" deb nomlangan ikkinchi bobida Xiva shahrida joylashgan arxitektura ob'ektlari: madrasalar, maqbaralar, masjidlar va majmualarning tipologik tahlili ochib berilgan.

³² <https://arxiv.uz>

Ikkinchi bobning *“Madrasalar tipologiyasi”* deb nomlangan 1-paragrafida asosan Ichan qal’a hududida joylashgan madrasalar tipologiyasi o’rganib chiqilgan. Jumladan, Arab Muhammadxon (1616), Muhammad Amin Inoq (1765), Qutlimurod Inoq (1809), SHerg’ozixon (1719-1728), Olloqulixon (1831-1835), Muhammad Aminxon (1852-1855), Muhammad Rahimxon (1870), Islom Xo’ja (1910), Asfandiyorxon va boshqa madrasalari rejaviy yechimi tahlil qilingan.(2-illova)

“Xorazm me’moriy yodgorliklari kompozitsion va tipologik xususiyatlarida XV – XVI asrlarda shakllangan O’rta Osiyoning an’anaviy me’morchilik modellarini aks ettiradi. Atrofi hujralar bilan o’ralgan madrasalar mahobatli gumbazga ega maqbaralar masjidlari ayvon va hovlilariga egaligi bilan o’ziga xos xususiyatga egadir. Ichan qal’ada bir nechta masjidlar mavjud bo’lib, ular orasida XVIII asr oxirida paydo bo’lgan va ichki ustunlarning tantanali va ta’sirchan ritmi tufayli Markaziy Osiyo me’morchiligining klassikasiga aylangan Juma masjidi alohida ajralib turadi. Ichan qal’a binolarining o’ziga xos jihati shundaki, interyer dizaynida ko’k-oq koshinlar va ko’plab yog’och ustunlar, darvoza va kichik eshiklar ifodali va o’ziga xos naqshlar bilan bezatilgan. Xorazm me’morligi o’zining ming yillik taraqqiyoti davomida dunyoga Xorazmlik me’morlar va qurilish san’ati ustalarining ijodiy yutuqlaridan, ko’p asrlik an’analar davomiyligidan dalolat beradi.”³³

Xiva O’rta Osiyoda madrasalari ko’pligi jihatidan faqat Buxorodan so’ng ikkinchi o’rinni egallagan. Xonliklar davrida 64 ta madrasa mavjud bo’lgan, shulardan 54 tasi shaharda, 10 tasi shahar atrofida joylashgan. Mazkur madrasalarning 10 tasi Xiva xonlari, 20 dan ziyodi xon avlodlari, boylari va diniy mahkama ulamolari tomonidan qurilgan. Hozirda Xiva shahrida 24 ta madrasa saqlangan.

«Samarqand, Buxoro madrasalari hovlisida chuqur ravoqli yozgi darsxonalar barpo etilgan bo’lsa, Xiva madrasalarida bunday oldi ochiq darsxonalar qurilmagan. Bu geografik sharoit bilan bog’liq bo’lib, yozda ochiq ayvondan darsxona sifatida foydalanib bo’lmasdi»³⁴. SHerg’ozixon, Qutlug’murod inoq, Muhammad Aminxon, Muhammad Rahimxon soniy, Matniyoz devonbegi madrasalari Buxoro madrasalariga xos uslubda bino qilingan bo’lsa-da, ularning orasida bir qancha farqlar mavjud. O’xshashligi kvadrat ko’rinishidagi hovlilarning deyarli barcha tomonlariga hujralar qurilganligi va tashqi tomondan peshtoq yonlariga chiqarilgan hujra oldi ayvonlar ko’rinishida namoyon bo’ladi. O’ziga xosligi hovli tomonga qaragan peshtoqlar yechimidadir.

Ikkinchi bobning *“Maqbaralar tipologiyasi”* deb nomlangan 2-paragrafida Ichan qal’a hududidagi maqbaralar arxitekturasi va ularning rejaviy yechimi ko’rib chiqilgan.

Xiva Ichan qal’a hududida ham maqbaralar qurilgan bo’lib, Said Olovuddin, Pahlavon Maxmud, Uch Avliyo, Yunusxon maqbaralari shular jumlasidandir. Ichan qal’a hududidagi maqbaralar tipologiyasi Movarounnahrning boshqa maqbaralari tipologiyasiga o’xshash tarzda shakllangan.

Said Olovuddin maqbarasi ikki kameradan iborat bo’lib, go’rxona va ziyoratxonadan iborat. Undagi yirik kosali burchak muqarnasi, do’ppisimon, sakkiz

³³ Хакимов А. Искусство Узбекистана: История и современность/ Институт искусствознания Академии наук Узбекистана. Тошкент-2010

³⁴ Болтаев А. Хива хонлиги тарихига оид материаллар // Ўзбекистон тарихи хрестоматияси. IV жилд. – 48б.

rahli gumbaz nihoyatda sodda ko'rinishga ega. Soddagina maqbara bilan rang-barang bezatilgan hashamatli dahma o'rtasidagi tafovutning kattaligidan, dahma boshqa joydan keltirilgandek tuyuladi. Dahma shakli monumental binoga o'xshatib yasalgan.

Uch Avliyo maqbarasi hovlisi ziyoratxona va go'rxonni ajratib turadi. Ziyoratxona ayvon shaklida. Maqbara bir gumbazli bo'lib, qadimiyligi uchun poydevori yer yuzasidan ikki metrgacha pastda qolib ketgan.

Yunusxon maqbarasi ikkita hujrali go'rxonadan iborat. Yunusxon maqbarasining bosh peshtoqi va ichki gumbazlarining qurilish uslubi Xivadagi Sayid A'louddin va Ostona qabristonidagi SHayx Muxtor Valiy maqbarasining qurilish uslubiga juda o'xshash.

Pahlavon Mahmud maqbarasi 3 ta qismdan iborat bo'lib, qabrxona, xonaqoh va yo'lakdan tashkil topgan. Maqbaraning g'arbiy qismida joylashgan xonaga Pahlavon Mahmud dafn qilingan. Xonaqoni shimoliy devori yonida Muhammad Rahimxon qabri joylashgan, uning yaqiniga esa Xiva xonlari Abulg'ozixon va Anushaxonlarning qabr toshlari o'rnatilgan. Yo'lakda esa Ollaqulixon dafn etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofi XIX asr oxiriga kelib Xiva xonlari va ularning yaqinlari dafn qilinadigan xilxonaga aylantirilgan.

Ikkinchi bobning 3-paragrafi "*Masjidlar tipologiyasi*" deb nomlangan. Ichan qal'aning eng yirik masjidlaridan bir bu Juma masjididir. Masjid Ichan-qal'aning sharqiy va g'arbiy darvozalarini birlashgan katta ko'cha yoqasida joylashgan, o'rta asrlarda shaharning ko'zga ko'ringan binolaridan biridir. O'ziga xos qurilishi va hajmi bilan ajralib turadi. Bu yodgorlik Xorazmning qadimgi masjidlarini eslatadi. Masjid katta 55x46 metrli maydonni egallab, ko'p ustunli qilib qurilgan. Masjid binosining tashqi ko'rinishi juda sodda, balandligi 4,5 metr, minoraning balandligi esa 32,5 metrga teng. Juma masjid bir qavatli tekis tomli imorat bo'lib, 213 ta ustuni bor.

Juma masjidi trapetsiya shaklida bo'lib, reja bo'yicha sharq-g'arb o'q bo'ylab yo'naltirilgan. Masjidning uchta kirish eshigi bor: asosiysi tarzning sharqiy qismida va ikkitasi kichik bo'lib, sharqiy va janubiy tomonda joylashgan. Ustunlarga oralig'i 3,15x3,15 m bo'lgan, ularning ustiga tekis shift yotadi. Masjid tomining o'rtasida ikkita yorug'lik tushishi uchun fonarlar qilingan. Tashqaridan qaraganda, masjid tarzida hech qanday me'moriy dizayn va dekor yo'q. Masjid eshigi o'yma naqshlar bilan qoplangan³⁵.

Bog'bonli (bog'bonlar) masjidi kiraverishidagi devorga o'rnatilgan tosh plitada yozilishicha 1224 hijriy – 1808-1810 milodiy yillarda usta Pahlavon-quli tomonidan qurilgan. Masjid Ichan qal'aning janubiy qismida joylashgan. Masjid, gumbazli zali bilan ajralib turadigan monumental masjidlar turiga kiradi (ko'pchilik Xiva masjidlari tomi ustunlar ustida tekis me'moriy tizim bilan yopilgan). Masjidning kompozitsion qurilishi simmetriya o'qi bo'ylab (shimoldan janubga) ketma-ket ochiladi – tahoratxona yon xonalari bo'lgan bir gumbazli o'tish xonasi, hovli, uning maydoni ikki ustunli ayvongacha davom etadi va markaziy (bitta) eshik orqali kiriladigan - masjidning gumbazli zali. Masjidning tashqi o'lchamlari deyarli muntazam to'rtburchak shaklida.

³⁵ Дурдиева Г.С. “Хива меъморий ёдгорликларини сақлаш ва таъмирлаш методологиясини такомиллаштириш” номли маъруза шаклидаги диссертацияси. Тошкент-2017.

Abdol bobo masjidi rejada to'g'ri burchakli, shimol-janub tomonga cho'zilgan, umumiy karkasli devor va zal bilan birlashgan bir ustunli ters va o'ng ayvonli ichki hovliga ega ikki ustunli namozxonadan iborat. Hajmning janubi-sharqiy qismida ikki ustunli ayvon mavjud, undan hovli orqali masjidga kiriladi. Masjid devorlari karkasli. Namozxonaning mexrob joyi o'yma ganch naqshlari bilan bezatilgan. Ustunlar yog'ochdan. oynadagi panjaralar naqshinkor metallardan. Ters va o'ng ayvon ustunlari va to'sinlari o'yib ishlangan bo'lib, XIX asrning sara ishlaridan. Kirishdagi ayvonining ustunlari ham o'yib ishlangan (XIX asrning boshi).

Ota Murod Qushbegi masjidi Muhammad Rizo Qushbegi buyurtmasiga binoan qurilgan. 1837 yilda uning o'g'li Ota-Murod Qushbegi tomonidan qaytadan qurilgan. Yozgi masjid ayvonining marmar asosida hijriy 1232 yil milodiy 1816 yil deb ko'rsatilgan.

Masjid shimoldan janub tomon cho'zinchoq to'g'ri burchakli maydonni egallaydi va o'z ichiga quyidagilarni oladi: janubda - qishki masjid, shimolda - tahoratxona va ular orasida - bir biriga qarab turgan o'ng va ters ayvonli cho'zinchoq xovli, ayvonlardan biri yozgi masjid bo'lib xizmat qiladi. Kirish joyi peshtoq ko'rinishida. Minora maydonning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan. Ular bilan birga bitta o'qda yana ikkita bir xil kattalikdagi tahoratxonalar joylashgan. Ucha xonaning barchasi gumbaz bilan yopilgan, uch ustunli tor ters ayvonga chiqish joylari mavjud. Ro'parasida - o'ng ayvonning olti ustunli qismi, xovlining yopilgan tor chiziqli joyi bilan ajratib qo'yilgan. Qarama - qarshi turgan ayvonlarning uslubi Xorazm uy-joylari uchun an'anaviy, ichki mikroiklimni yaratadi, havo oqimini tutib, xona qizib ketishidan himoya qiladi. O'ng ayvon ortida - qishki masjid zali joylashgan.

Ikkinchi bobning "*Majmualar tipologiyasi*" deb nomlangan 4-paragrafida Ko'hna ark majmuasi, Tosh hovli, Nurillaboy va boshqa majmualar arxitekturasiga to'xtalib o'tilgan.

Ko'hna ark majmuasi arzxona, mehmonxona, zarbxona, xaram, yozgi va qishgi masjid binolaridan tashkil topgan. Binoning muallifi, quruvchisi va buyurtmachisi noma'lum. Og'zaki ma'lumotlarga ko'ra, bino XV asr shayx-darvesh Muxtor Valining hujra maskani bo'lgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, unda yashagan "avliyo" Oq-shayx-bobo yoki Oq-shih-bobo - SHayx Muxtor Valining ustoz bo'lishi mumkin. Keyinchalik bino Ko'hna-Ark qal'asining qo'riqchi minorasi sifatida foydalanilgan. Eski fotosuratga ko'ra, ikki qavatli binoning asl ko'rinishi sezilarli darajada o'zgargan. Devor va shiftlarning bir qismi vayron bo'lgan, ko'plab konstruktiv qismlar yo'qolgan.

Ko'hna-ark - 9100 kv.m maydonga ega eski qal'a. U Ichan-qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uning hududida sun'iy stilobatda Oq-shayx-bobo darveshining xujrasi joylashgan. SHimoldan turar-joy binolari, janubdan Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi, sharqdan Muhammad Rahimxon madrasasi, zindon, Polvon qori do'koni bilan o'ralgan, qal'aning g'arbiy tomonidan Deshon-qal'aga chiqiladi.

Qal'aning qurilishi 1686-1988 yillarda boshlangan. Anushaxonning o'g'li Arangxon tashabbusi bilan qoplama ishlarini usta Matpano va Vafo bajargan. Ko'rinish xonaning zamonaviy binosi 1804-1806 yillarda Iltuzarxonning buyrug'iga asosan qurilgan, ustasi noma'lum. Haram Muhammad Rahimxon II (1865-1910) davrida qurilgan. Zarbxona 1806 yilda Muhammad Rahimxon I (1806-1825)

tomonidan qurilgan. Yozgi masjid ayvonining devori sirtini qoplash xivalik saroy hunarmandlari Abdulla Jin va Ibodullalar tomonidan bajarilgan.

XVIII asr oxiriga kelib Ko'hna-ark Ichan-qal'adan baland devor bilan ajratilgan "shahar ichidagi shahar" bo'ldi. Bu yerda qal'a, xon qarorgohi, oliy sud, kukun zavodi, zarbxona, ko'rinishxona, xon masjidi, idora, haram, oshxonalar, otxonalar, qamoqxonalar, qo'chqorlarni urishtirish uchun arena bor edi. Avvalgi Ko'hna-arkdan bir qancha binolar saqlanib qolgan. Ko'hna-ark va ko'rinishxona darvozalari orasidagi hozir bo'sh bo'lgan joy zich qurilgan edi, shuning uchun tashqi tarz me'moriy loyihalashtirilmagan. Devonlar, otxonalar, kazarmalar buzilib ketgan.³⁶

Toshhovli majmuasi 1830-1838 yillarda Olloqulixon tomonidan qurilgan Olloqulixon caroyi - Xivadagi me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Xalq ustalari Nurmuhammad, usta Toji va usta Qalandar Xivakiy tomonidan bunyod etilgan. Toshhovli 3 hovli, 111 ta xonadan iborat: Arz hovli (darvozasi g'arbga), ishrat hovli (janubga), haram (darvozasi g'arbga qaragan). Xorazm mahalliy turar-joy me'morligiga xos uslubda, shahar tashqarisidagi qo'rg'onhovli ko'rinishida bo'lgan. Atrofi baland, qalinligi 1,2 - 1,5 metr keladigan devor bilan o'ralgan. Devor tepasi kungurali, darvoza yonlari guldastali. Tarhi 80×42 m, hovlisi 49×15 m, janub qismida 5 ta alohida alohida ayvonlar (xon va uning 4 xotiniga mo'ljallangan) bor, ulardan xonalarga dahlizlar orqali kiriladi. Qabulxona (ishrat hovli tarhi 43×36,5 m) haramning janubiy - sharqiy qismida qurilgan (1832-1834 yy.). 3 yildan so'ng janubi-g'arbiy burchagida arz hovli (tarhi 35 × 40 m) qad rostlagan (1837-1838 yy.). Har bir hovlida alohida xizmatchilar xonasi, xo'jalik xonalari, otxona bo'lgan. Hovlilarda ayvonlar o'ziga xos uslubda joylashgan. Haramning janubida 2 qavatli bino oldiga baland qilib bir ustunli ayvon ishlangan, arz hovli va ishrat hovlidagi binoning faqat 2 qavatida bir ustunli, panjara to'siqli ayvon bor. Hovli markazidagi doira shaklli supaga chodir o'rnatilib mehmonlar kutilgan.³⁷

Umuman olganda, Xiva shahri tarixiy yodgorliklari Movarounnahrning boshqa yodgorliklari arxitekturasiga o'xshash tarzda shakllangan bo'lib, ularda ba'zi o'ziga xos jihatlarni uchratish mumkin. Madrasalar tipologiyasida ularning ikki hovlili tarzda shakllantirilganligi, madrasalarga kirish yog'ochdan yasalgan lodjiyalarga ega yirik peshtoq bilan ajratilganligi, hovlida quduq mavjudligi, ayrim madrasalarning hovlisida muzxona mavjudligi, hovlining sakkizqirrali tarzda shakllantirilganligi, maxsus ta'lim beriladigan madrasalar mavjudligi, madrasalar oldida minoralar shakllantirilganligi (Muhammadamin madrasasi va Kalta minor, Islomxo'ja madrasasi va minorasi) kabi o'ziga xos jihatlari mavjud.

Dissertatsiyaning "**Mahallalar va turar uylar arxitekturasi**" deb nomlangan uchinchi bobida Xiva shahrida joylashgan mahallalar, ularning nomlanishi, turar uylar arxitekturasi, tipologiyasi va ularni ta'mirlash yuzasidan loyiha takliflari berilgan.

Uchinchi bobning "*Xiva shahri mahallalari arxitekturasi*" deb nomlangan 1-paragrafida mahallalar arxitekturasi ko'rib chiqilgan.

O'rta Osiyo shaharlari hududi yirik va kichik bo'linmalarga bo'linib, ular turli hududlarda turlicha nomlangan. Masalan, Toshkentda yirik bo'linma daha deb nomlangan bo'lsa, Xivada elot deb nomlangan, shuningdek Toshkentda kichik

³⁶ Маньковская Л., Куня Арк. Паспорт № 3.2.4.-4.10.7 Архив ГлавНПУ при Мин. Культуры РУз.

